



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Nigina Sadikova

Samarqand tumani 10 IDUM biologiya fani o'qituvchisi

TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALARNI O'RGANISH

Annotasiya. Maqolada ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalar borasida , ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Xalqaro baholash dasturlari, PISA dasturi ,tadqiqotlar, Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.

Bugun mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda —Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazitashkil etildi. Eng



muhimi, 2018 yil 12 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro talabalar bilimni baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to'g'risida kelishuvga erishildi. O'z navbatida, PISA tadqiqotlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak. PISA tizimi bu nima o'zi? O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997 yilda joriy etilgan bo'lib, xar uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi, birinchi marta 2000 yilda o'tkazilgan bo'lib 43 ta mamlakatdan o'quvchi yoshlar o'z bilimlarini sinab ko'rishgan. Yillar kesimida oladigan bo'lsak 2003 yilda 41 ta mamlakatdan, 2006 yilda 55 ta mamlakatdan, 2009 yilda 75 ta mamlakatdan, 2012 yilda 65 ta mamlakatdan, 2015 yilda 71 ta mamlakatdan va 2018 yilda-78 ta mamlakatdan o'quvchi yoshlar ishtirok etishganini ko'rishimiz mumkin. Dastur mamlakatdagi jami 15 yoshli o'quvchi yoshlarning 3% ni qamrab oladi. Har 3 yilda bitta fan yunalishiga afzallik berilib, 2000 yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan holda o'tkazilgan. Demak, uch yilda bir marotaba o'tkazilishini inobatga oladigan bo'lsak 2021 yilda matematik savodxonlikka urg'u beriladi. Savol tug'iladi, nima uchun PISA xar uch yilda va 15 yoshlilar o'rtasida o'tkaziladi? PISA dasturining asosiy maqsadi mamlakatlar ichida ta'lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo'llabquvvatlashdan iboratdir. Uch yillik sikllar davomida dasturni amalga oshirilishi esa o'z navbatida mamlakatlarga o'z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta'sirini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatini yaratib beradi. Agarda dasturni o'tkazish davriyligi qisqa davrlarda amalga oshirilsa, o'zgarish va yangiliklarning rivojlanishi yoki yetarli ma'lumotlarni to'play olmaslikni va o'z navbatida ish unumdorligini kamayishiga olib keladi. Aynan 15 yoshli o'quvchi yoshlar o'rtasida dasturni amalga oshirilishini sababi esa ushbu yoshda aksar iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning o'quvchi yoshlari majburiy ta'limning oxirgi bosqichiga o'tishadi. Ushbu dasturning mukammalligi shundaki, ushbu dastur butun dunyo bo'yicha aynan 15 yoshli o'quvchi yoshlarning bilim va ko'nikma darajalarini o'lchovchi yagona dastur bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda quyidagi masalalar ko'tariladi: Davlat siyosati masalalari; Maktablar o'quvchi yoshlarni katta hayotga o'tishiga munosib ravishda tayyorlay olishyaptimi?; Aynan ayrim turdagi o'quv dasturlari boshqalariga nisbatan samaraliroqmi?. Aytish mumkinki, o'quvchi yoshlar butun bir maktab hayoti davrlarida o'zlari uchun kerak bo'lgan barcha bilim va malaka ko'nikmalarini yetarli darajada o'zlashtira olishmaydi. PISA dasturi esa o'quvchi yoshlarni nafaqat bilim va malaka ko'nikma darajalarini balki ularning katta hayotga



tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va o'qish strategiyalarini mustahkamlanishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. 2000-2015 yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bizga shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda Sharqiy Osiyoda- Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada-Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan bo'lib, bizdan ushbu davlatlarning ta'lim tizimidagi ijobiy tomonlarini tahlil qilishni va qiyoslashni davrni o'zi taqozo etmoqda. PISA dasturi tadqiqotlari davomida biz PISAg a'zo davlatlar ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlarni o'zaro taqqoslash va qiyoslash, ta'lim sohasida strategik qarorlar qabul qilishni va o'z navbatida maktablarimizda berilayotgan bilim saviyasi o'quvchi yoshlarimizni katta hayotda o'z yo'llarini topishida munosib xizmat qilmoqdami kabi savollarga javob topishimizga amaliy yordam ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni
2. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
3. A. B. Panjiyev, A. A. Ismoilov, J. R. Narziyev, X. P. Ahmedov, G. O. Tog'ayeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. (qo'llanma) – T.: 2019. -62 b. 6. www.edu.uz 7. www.aim.uz